



UDK: 1 (09)

Ziyadulla GAZIYEV,

Katta o'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti, Jizzax, O'zbekiston

E-mail: abrorxon-2006@mail.ru

JDPI professori, DSc A.Saitqosimov taqrizi asosida

ISLOMIY QADRIYATLARDAGI GUMANISTIK G'UYALAR RIVOJI

Annotatsiya

Islom dini inson va insonparvarlik masalasiga alohida e'tibor qaratadi. Qur'oni Karimda insonni Alloh tomonidan yaratilganligi, uning yashashdan maqsadi, boshqa jonzorlar ichida xalifa ekanligi, uning bu dunyoda qiladigan xayrli ishlari, solih amallari, insonparvarligi, musulmonlarning bir-biriga yordami, tuban va yaramas illatlarni qoralashi va shunga o'xshash ko'plab masalalar haqida fikr yuritiladi. Islom dinining muqaddas kitobida aytilishicha, Xudo insonni yer yuzida xalifa qilib yaratgan, barcha farishtalar, iblisdan tashqari, tirik mavjudotlar va jonivorlar unga bo'ysunadi.

Kalit so'zlar: Alloh, Islom, Qur'on, hadis, imon, e'tiqod, insonparvarlik, ma'naviyat, ma'rifat, din, meros, yaxshilik, fazilat, axloq, nasihat, sulola, davlat, siyosat, diniy olim, ta'lim, adabiyot, ma'naviyat, muhit, fan, madaniyat, taraqqiyot, masjid, hurfikrlilik.

РАЗВИТИЕ ГУМАНИСТИЧЕСКИХ ИДЕЙ В ИСЛАМСКИХ СЕННОСТЯХ

Annotatsiya

Ислам уделяет особое внимание вопросу человека и человечности. Священный Коран обсуждает сотворение человека Богом, его предназначение в жизни, его роль наместника среди других творений, его добрые дела в этом мире, праведные поступки, человечность, взаимопомощь мусульман, осуждение низких и злых пороков и многих других подобных вопросов. Согласно священной книге ислама, Бог сотворил человека как наместника на земле, и все ангелы, кроме Сатаны, живые существа и животные повинуются ему.

Ключевые слова: Аллах, ислам, Коран, хадис, вера, убеждения, гуманизм, духовность, просвещение, религия, наследие, доброта, добродетель, мораль, совет, династия, государство, политика, религиозный ученый, образование, литература, духовность, окружающая среда, наука, культура, развитие, мечеть, свободомыслие.

THE DEVELOPMENT OF HUMANISTIC IDEAS IN ISLAMIC VALUES

Annotation

Islam pays special attention to the issue of man and humanity. The Holy Quran discusses the creation of man by God, his purpose in life, his being a vicegerent among other creatures, his good deeds in this world, righteous deeds, humanity, Muslims helping each other, condemning base and evil vices, and many other similar issues. According to the holy book of Islam, God created man as a vicegerent on earth, and all angels, except Satan, living creatures and animals obey him.

Keywords: Allah, Islam, Quran, hadith, faith, belief, humanism, spirituality, enlightenment, religion, heritage, goodness, virtue, morality, advice, dynasty, state, politics, religious scholar, education, literature, spirituality, environment, science, culture, development, mosque, freethinking.

Kirish. Borliq va tabiatda Alloh nimaiki yaratgan, bunyod qilgan bo'lsa, xoh sayyoralar bo'ladimi, Oy va Quyosh, dengiz va okeanlar, daraxt o'simliklar, bog'lar bo'ladimi, bularning hammasi Inson va uning farovonligi, solih amallarni bajarishi uchun ko'zlangan. Modomiki shunday ekan, u noshukur bo'lmasligi, kufr va gunoh ishlarni qilmasligi, boshqalarga ozor yetkazmasligi, rahmdil va mehr-shafqatli bo'lishi darkor. «U sizlar uchun Yerni payondo, osmonni «bino» qilib qo'ydi va sizlarga rizq sifatida mevalar undirdi. Bas, bilib turib Allohga (ibodatga) boshqa (soxta ma'buda)larni tenglasmangiz»[8]. Umuman olganda, Qur'oni Karimda dunyoviy masalalarga katta e'tibor beriladi. Inson oxiratda do'zax azoblaridan forig' bo'lib, jannatda rohat va farog'atda bo'lishni istasa, taqvodor, imonli va e'tiqodli bo'lish bilan birga insonparvarlik, ezgulik, yaxshi va solih amallar bilan magshul bo'lishi, xayr-ehson qilishi, muhtoj va g'ariblarga yordam berishi, o'zgalalar bilan hamjihatlikda, tinchlikda yashashi lozim.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Islom falsafasida odamlarning fe'l-atvori, qilıkları, jamiyatga keltirgan foydaziyoni, kattalarga, ota-onaga munosabati, nafsini tiyishi yoki

tagirligi, ochko'z va badnafsligi, xushmuomalaligi, mehr-oqibatligi, xulq-odobi, bilimdonligi yoki nodonligi, odamiyligi yoki sitamgarligi, rostgo'yiligi yoki firibgarligi, oliyhimatligi yoki pastkashligi, saxiyiligi, boylikka ruju qo'yishi, fahm-farosatligi, ayollarga munosabati, bag'rikengligi, hasadchi va g'iybatchiligi va boshqa hattiharakatiga qarab yaxshi va yomonga bo'linadi.

Hadislarda o'z daromadidan beva-bechoralarga ehson qiluvchi, xokisor, kamtar va iffatli kishilar, umuman o'zida butun insoniy xislatlarni to'plaganlar yaxshi hisoblanadi. «Nuqsonsiz bo'la turib kamtarin, o'zini o'ta miskin tutmagan holda past tutuvchi, halol yo'l bilan to'plagan mollaridan ehson qiluvchi, iffatli, ilmu hikmat ahli bilan aralashib yuradigan, miskin va beva-bechoralarga rahmu shafqat qiladigan odamga ko'p yaxshiliklar bo'lur. O'zini kamtarin olib yuruvchi; halol kasb qiluvchi, qalbi pok, ko'rinishi yoqimli, odamlarga o'z yomonligini yetkazmay yuradigan kishilar naqadar yaxshi! Ilmga amal qiladigan, ortiqcha dunyosidan xayru ehson qiladigan, behuda gapdan tilini tiyadigan kishilar naqadar yaxshi kishilardir»[4].

Qur'oni Karimda hozir ham dolzarb bo'lib turgan vayronkorlik va buzg'unchilik kabi insoniylikka zid qabih va yovuz ishlar qattiq qoralanadi. «Alloh bilan axd bog'laganlaridan keyin uni buzadigan, Alloh bog'lanishiga buyurgan narsalarni uzadigan va Yer yuzida buzg'unchilik qilib yuradigan kimsalar ham borki, ular uchun (Allohdan) la'nat bo'lur va ular uchun noxush diyor (jahannam) bordir»[8].

Islom falsafasida qimmatli fikrlardan yana biri bu - yetim-yesirlarga mehr va muruvvat, xayr-ehson ko'rsatish va yordam berishdir. Bu insonparvarlik va odamiylikning yuksak ko'rinishidir. Qur'oni Karim va hadislarida yetimning moliga ko'z olaytirish qattiq qoralanadi va gunohi azim hisoblanadi. Aksincha, yetimlar, beva-bechoralarni parvarish qilish, ularni qo'llab-quvvatlash va yordam berish savobli va solih amallar sirasiga kiradi.

Islom dinida e'tibor berilgan masalalardan biri farzandlarning ota-onaga munosabatidir. «Ota-onangga itoat qil, agar ular dunyodan voz kech, desalar ham hurmatlari uchun buyruqlarini ijro qil!»[7], - deyiladi Imom Buxoriy to'plagan hadislarida. At-Termiziy hadislarining birida shunday deydi: «Bahz ibn Hakim aytishicha, unga otasi, bobosi shunday rivoyat qilgan: «Yo rasululloh, - dedim, - kimga ezgulik qilay?» Rasululloh: «Onangga», - dedilar. «Yana kimga?», - deb edim, «Onangga», - dedilar. «Yana kimga?», - dedim. «Otanga», - dedilar, - undan keyin barcha yaqinlarga», - dedilar»[2].

Hadislarida «Insonga bir vodiy to'la molu dunyo berilsa, u ikkinchi vodiyning ham berilishini xohlaydi. Ikkinchisidan keyin uchinchisini va hokazo, uning nafsi to'yamaydi. Insonning ko'zini faqat tuproq (qabr tuprog'i) to'ydiradi. Kimki tavba qilsa, Tangri uni kechiradi»[4]. Qur'on va hadislarida saxiylik baxillik, ta'magirlik va ochko'zlikka qarshi qo'yiladi, u bag'rikenglikning muhim xususiyatidir. Muhadsislar nazarida, saxiylik insonning ziynati, go'zal fazilatidir.

Hadislarida ilm egallash va uning afzalligi haqida qimmatli fikrlar aytilgan: «Ilmga nisbatan go'yo cho'pon kabi posbon bo'linglar, lekin ilmni faqat rivoyat qiluvchi bo'lmanglar!», «Bir soatgina ilm o'rganish bir kechalik ibodatdan yaxshi, bir kunlik dars esa uch oy tutilgan nafl turli buzuq odatlar, shahvoniy nafs, bir-birini ko'rolmaslik, bir-birini talash, dushmanlik, nizo-janjallar paydo bo'ladi»[4].

Tadqiqot metodologiyasi. Tasavvufning solikka qo'ygan muhim talabi Alloh vasliga yetishish va u bilan birlashishdir. Buning uchun tasavvufni ixtiyor qilgan soliklar 4 bosqichni bosib o'tishi zarur edi. Bular: shariat, tariqat, ma'rifat va haqiqat. Mana shu bosqichlarni o'tib bo'lgandan so'ng so'fiy oxirida haqiqatga - Allohga yetishib abadiylikka noil bo'lishi mumkin.

Tasavvufning amaliy va nazariy tomonlari mavjud bo'lib, uning amaliy tomoni Allohning vasliga yetishish yo'lida solikka qo'yilgan talablardir. Murid Qur'on va unga asoslangan shariatni, botiniy va zohiriy bilimlarni puxta egallashi, bu dunyoga keragidan ortiq ruju qo'yimasligi, ruhan va qalban poklanib borishi va hako'alardir.

Tasavvufda bilish 2 turg'a bo'linadi: zohiriy va botiniy bilish. Zohiriy bilish ko'pchilikka xos. U ilohiy va dunyoviy bilimlarni o'z ichiga oladi. Zohiriy bilimlarni sezgi va aql yordamida egallash mumkin bo'lsa, botiniy bilimlarni ko'proq komillikka erishgan, yetuk insonlar, ya'ni orif va avliyolar egallashi mumkin. Ibn Arabiy bilimlarni 3 ga bo'ladi: aqliy-hissiy bilimlar, hol ilmi, siru asror ilmi. N.Komilovning ta'riflashicha, «Birinchii ilm zohiriy fanlar bilan shug'ullanadigan kishilar ilmi bo'lsa, ikkinchi ilm hol martabasiga ko'tarilgan so'fiylar ilmi hisoblanadi, ya'ni vajd holatida kashf etilgan ilm. Uchinchi ilm avliyolar ilmi. Bu ilm muqaddas ruhlar orqali keladi, shula-nur ko'rinishida qalbg'a kiradi»[9].

Tasavvuf ta'limotini rivojlantirishda va uning insonparvarlik mohiyatini o'rganishda Yusuf Hamadoniy (1048-1140), Abduxoliq G'ijduvoni (1103-1179), Ahmad Yassaviy (vafoti 1166), Najmidsin Kubro (1145-1221), Azizidsin Nasafiy (13 asr), Bahovuddin Naqshband (1318-1389), Xoja Ahror (1404-1490) va boshqalarning asarlari muhim ahamiyatga ega.

Ayniqsa, G'ijduvoniyning asarlarida insonparvarlik g'oyasi kuchli aks etgan. Bu borada mutasavvifning «Odob tariqat» yoki «Risolati vasoyo» («Nasihatlar kitobi»), «Xoja Yusuf Hamadoniy maqomati», «G'ijduvoniyning aytganlari haqida kitob», «Vasiyatnoma» risolalari e'tiborga molikdir.

Abduxoliq G'ijduvoni «Odob tariqat» asarida o'zining ma'naviy farzandi va shogirdi Avliyoyi Kabirga qilgan pandu nasihatlarida, solikning qanday xulk-odob qoidalariga rioya qilishi, qanday insoniy xislatlarni egallashi, xayrli va savob ishlar bilan mashg'ul bo'lib, yaramas odatlardan qochishi va hidoyat yo'lini tanlashi zarurligi haqida qimmatli fikrlarni ilgari suradi. U «doimo adabli bo'l. Barcha holatda yaxshiga ham, yomonga ham lutfu marhamat bilan muomala qil»[1], - deb o'g'liga nasihat qiladi. U soliklarni yaxshi xislatlarni egallashga, kasb-hunar bilan mashg'ul bo'lishga, muhtojlarga yordam berishga, bechora va zaiflarga mehr-shafqatli va sahovatli bo'lishga da'vat etadi. Mutasavvif nafsni tiyish haqida e'tiborga loyiq fikrlarni ilgari suradi. Uning nafsni jilovlash haqidagi fikrlari o'z mohiyat e'tibori bilan boylikka hirs qo'yishga, ochko'zlik va ta'magirlikka qarshi qaratilgandir. «Nafsing ishtiyog qilsa ro'za tut, - deydi G'ijduvoniy. - Amalga intilmaginki, kimki amalparast bo'lsa, tariqat yo'liga loyiq emas. Doimo nafsingni qiyna, faqir yo'lida mahkam tur. Boylikka intilma, diyonatli va taqvoli, olim va parhezgar bo'l»[9]. G'ijduvoniyning fikricha, nafsni tiyish insondan qiyinchiliklarga bardosh berishni, riyozat chekishni, mashaqqatlarni mardonavor yengishni talab qiladi. Buning uchun inson faqirlikni ixtiyor aylashi, ta'magirlik qilmasligi, halol va pok bo'lishi, zalolatga berilmasligi, qabih ishlardan uzokda yurishi darkor.

Xojayi Jahonning insonparvarligi yomonlarga yaxshilik qilish to'g'risidagi fikrlarida ham bilinadi. Agar biron kimsa boshqa odamning ko'nglini og'ritgan yoki zarar yetkazgan bo'lsa, zinhor undan qasd olish payida bo'lmasligi lozim. Chunki uning yomonligining o'zi ul shaxsga jazodir.

Gumanistik fikrlar yassaviylik tariqatining asoschisi Ahmad Yassaviyning diniy-irfoniy qarashlarida o'z in'ikosini topgan. Mutasavvifning «Hikmat» asarida insonning bu dunyoda yashashidan maqsadi, halol va pok bo'lishi, g'arib va beva-bechoralarga yordam berishi lozimligi, nafsning quliga aylanmasligi, nodonlik va johillik, zulm va istibdod, adolatsizlik, takabburlik, yolg'onchilik, ta'magirlik kabi illatlarga salbiy munosabatda bo'lishi, ularni qoralash kerakligi to'g'risida qimmatli fikrlar ilgari suriladi.

Mutasavvif «ko'ngli sinuq», «mazlum», «g'arib», «faqir, yetimlar»ni g'amiga malham bo'lishga, ularni ko'nglini ovlashga, yordam qo'lini cho'zishga, og'ir qismatini yengillashtirishga chaqiradi:

G'arib, faqir, yetimlarni qilgin shodmon,

Xalqalar qilib aziz joning ayla qurbon,

Ey behabar, sen bir sabab, o'zi asror,

Hak Mustafo iandin eshtib, aydim mano»[5].

Yassaviy o'zining tasavvufiy qarashlarida, xuddi boshqa mutasavviflar singari, nafs masalasiga ham to'xtaladi. Yassaviy sabr-qanoat nafsni jilovlashning asosi deb hisoblaydi:

Nafsdan kechib, qanoatni peshga qilgan,

Har kim tepsa rozi bo'lub, bo'yun sungan,

Yaxshilarga xizmat qilib, duo olg'an,

Andog' oshiq mahshar kuni armoni yo'q»[5].

Yassaviyning insonparvarligi yana shunda bilinadiki, u mehnat qilmay tekinox'lik bilan shug'ullanuvchi daydi

so'fiylar, boylikka hirs qo'ygan eshonu shayxlar, insoniylikni unutilgan zolim hukmdorlar, o'zlarini olim deb, aslida esa johil va nodon kimsalarni qoralaydi.

XIV asrda yashagan mashhur mutasavvif, naqshbandiylik sulukining asoschisi Bahouddin Naqshbandning faoliyati insonni ulug'lashga, uni fazilatlarini yuksalikka ko'tarishga bag'ishlangan.

Mutasavvifning gumanistik tamoyili uning «zohirda xalq bilan, botinda Haq bilan», «Dil ba yoru, dast ba kor» (Diling Allohda, qo'ling mehnatda bo'lsin) degan shiorlarida mujassamlashgandir. Bunda insonning botiniy va zohiriy dunyosi bir- biridan ayri holda ko'rilmaydi. Insonning bu dunyoda qilgan ishlari oxirat uchun tayyorgarlik bo'lishi kerak... Ayni paytda solik bu dunyoda Allohni esdan chiqarmagani holda, halol mehnat qilishi, yaramas va harom-xarish ishlar bilan mashg'ul bo'lmasligi, doimo poklanib borishi, kamtar va xokisor bo'lishi, muhtojlarga yordam berishi, oz narsalarga qanoat qilishi, nafsga berilmasligi darkor, chunki har qanday noz-ne'mat «hayot ulovi»dir, xolos.

Tahlil va natijalar. Yassaviy nafsga berilgan, birovlardan nazir-niyoz umidi bilan yashaydigan boshqalar qayg'u alamlariga befarq, o'zgalarni mol-dunyosiga ko'z tikkan, «so'fiman deb lof uruvchi», aslida esa tasavvuf qoidalarini buzuvchi kishilarni tanqid ostiga oladi.

Bahouddin Naqshband butun umri davomida yuqoridagi axloqiy va insoniylik qoidalariga amal qildi. «Maqomat»da naql qilinishicha, Hazrat Hirotdaligida shoh Malik Husayn uni boshqa ulamo va mashoyihlar bilan birga mehmonga chaqirib ziyofat uyushtiradi. Hamma taom yeyish bilan shug'ullanadi, lekin xoja ovqatdan iste'mol qilmaydi. Undan buning sababini so'raganlarida «Men hokimim (ya'ni xudo)dan so'radim, u ikki yo'lni ko'rsatdi. U dediki, agar yemasang, degaysanki, shohning dasturxonini edi, shu sabab iste'mol qilmadim. Agar tanovul qilsang, keyin so'rasalarki, nega iste'mol qilding, unda ne deb javob bergaysan?»[3]. Bu yerda Naqshband shohning dasturxonidagi noz-ne'matlar uning mehnati tufayli yetishtirilmaganligiga ishora qilmokda.

Naqshband nafsni jilovlashda unga berilmaslik, sabr-qanoat, oz narsalar bilan kifoyalinish muhim o'rinni egallaydi, deb o'ylaydi. Umuman, tasavvuf ta'limotida hamma narsalarda me'yorga amal qilishga alohida e'tibor qaratiladi. Naqshbandiylik tariqati hamma narsada mo'tadillikka erishish

zarur deb, tarkidunyochilik va go'shanishinlikka qarshi chiqadi, inson qalbida Allohni saklagani holda mehnat qilishi, ortiqchalik va isrofgarchilikka yo'l qo'ymasligi, tana va ruh me'yoriga amal qilishi lozimligini ta'kidlaydi.

Bahouddin Naqshband o'zining tasavvufiy qarashlarida nafsga, hirsu havasga berilishni solik uchun katta gunoh, tubanlik deb biladi. Shuning uchun ul zot nopok illatlardan tozalashni Allohdan iltijo qilib so'raydi: «Alloh! Sendan badnafs, ko'p behuda so'zlovchi bo'lish, kibr, hirsu havas, hasad, dunyoga berilish, yomon gumonli bo'lish, tama', qo'pollik, may ichish, bemahal marg, fitna, qattiq va og'ir yashashdan panoh so'rayman!»[6].

Xulosa va takliflar. Islom falsafasida bilimdonlik, ilm-ma'rifatni egallashga alohida e'tibor qaratiladi. Chunki, u yaxshilik, odamiylik va donolikning belgisidir. Qadimdan insonlar ilm-ma'rifatga intilganlar, jaholatparastlik, nodonlik va savodsizlikni qoralaganlar. Umuman olganda, olimlarning hisoblashicha, Quroni Karimda ilm tushunchasi 750 marta, aql atamasi 50 marta va akl egalari to'g'risidagi fikr 10 marta takrorlanadi.

Yassaviy zamona buzilib ketayotganligidan, dunyoda zolim, badbaxtlar, munofiq va nodonlar ko'payib, haqiqiy insonlar kamayib borayotganligidan noliydi. U hukmdorlarni adolatli bo'lishga, raiyat g'amini yeyishga, g'arib, bechora va yetim-yesirlarga rahmdil, mehr-shafqatli bo'lishga, insoniylikni unutilmaslikka da'vat etadi.

Naqshbandiylik inson fazilatlarini sharaflovchi, mehnatni ulug'lovchi, bunyodkorlik ruhi bilan sug'orilgan ta'limot bo'lib, unda nafsni tarbiyalash qoidalari, sabr-toqat, sofdillik, halollik, insonparvarlik, kamtarlik, komillikka intilish g'oyalari o'z ifodasini topgan.

Gumanistik - insonparvarlik qarashlar O'rta Osiyoda Uyg'onish davrining so'nggi bosqichida yuqori cho'qqiga ko'tarildi. Darhaqiqat, temuriylar davrida inson shaxsiga e'tibor kuchaydi, uning eng yaxshi xislatlari qadr topdi, shirinsuxanlik, xushmuomalalik, madaniy va falsafiy merosga kiziqish, inson akl-zakovati, donoligi, ichki ruhiy olami, go'zalligi va nafosatini tasvirlash, undagi erkinlikka, bilimni egallashga intilish, vatanparvarlik, shijoatkorlik, ma'naviy-ruhiy poklanish, barkamol avlodni tarbiyalash, insof va diyonat, bag'rikenglik, adolat va haqiqat uchun kurash - o'sha davrning muhim belgisiga aylandi.

ADABIYOTLAR

1. Abduxoliq G'ijduvoyiy. Odobi tariqat. Xoja Abduxoliq G'ijduvoniy. So'z boshi va izoxlar muallifi Mahmud Xasaniy. -T.: «O'zbekiston», 2003.
2. Abu Iso at-Termiziy. Tanlangan hadislar. -T.: 1993.
3. Abulhasan Muhammad Bokir bin Muxammal Ali. Bahovuddin Naqshband maqomatlaridan. -T.: Durdona, 1992.
4. Axloq-odobga oid hadis namunalari. - T.: «Fan», 1998.
5. Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat. -T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1992.
6. Bahovuddin Naqshband. Avrodi bahoiya. /Forschadan G.Navruzova tarjimasi. -T.: 2000.
7. Imom Ismoil al-Buxoriy. Al-adab al-mufrad. - T.: "O'zbekiston", 1990.
8. Qur'oni Karim manolarining tarjimasi. -T.: Toshkent Islom universiteti nashriyoti, 2001.
9. Komilov N. Tasavvuf yoki komil inson axloqi. 1-kitob.- T.: «Yozuvchi», 1996.
10. Usmon Turar. Tasavvuf tarixi. - T.: «Istiqlol», 1999.